

ALOHIDA TA'LIM EHTIYOJI BO'LGAN BOLALAR UCHUN
IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABDA MEHNAT TARBIYASINING
MAZMUN VA MOHIYATI

Parida Pulatova

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
professori, p.f.n.*

Norbo'tayeva Nozima

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti magistranti

Annotatsiya: *Maqolada ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarida mehnat tarbiyasi va Alohida yordamga muxtoj bolalarni korreksion rivojlantirishda mehnatning ahamiyati, mazmun-mohiyati va uni korreksion pedagogik ta'sirini yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Ixtisolashtirilgan maktab, alohida yordamga muhtoj bolalar, aqli zaif bolalar, mehnat tarbiyasi, mehnatning korreksion ta'siri, mehnat tarbiyasi, mehnat tarbiyasi metodlari, mehnatsevarlikni shakllantirish, kasb-hunarga tayyorlash.*

Аннотация: *В статье говорится, что школа - это образовательный труд и отдельно ассистент автономный отдел коррекционно развивает актуальность, содержания-сущность и униформа педагогического влияния развития учащихся спетсализированной школ*

Ключевые слова: *Школа, отделний помощник, воспитателний труд, коррекционнойе влияния, трудовойе воспитанийе, воспитанник, воздействие, профессия-ремесло.*

Abstract: *In the article, the importance, meaning and essence of work and its corrective pedagogical effect in the correctional development of children in special schools and the correctional development of children in need of special assistance are highlighted.*

Key words: *Specialized school, children in need of special support, mentally retarded children, labor education, corrective effect of labor, labor education, methods of labor education, formation of diligence, preparation for profession.*

Alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan bolalar uchun maxsus maktablardagi mehnat tarbiyasi nuqsonli bolalarni mehnat faoliyatida tarbiyalash majmuasidir, deb ta'kidlanadi defektologik lug'otda. Hozirgi davrda mehnat tarbiyasi boshqa tarbiya turlaridan har taraflama ustunligi bilan ajralib turadi. Ixtisoslashtirilgan maktablardagi mehnat esa alohida



tashkil etilishi lozim. Chunki mehnat faoliyatida intellektual kamchiligi bo‘lgan o‘quvchilardagi psixofizik yetishmovchiliklar mehnat orqali ko‘proq tuzatiladi va bartaraf etiladi. Mehnat jarayonlari yordamchi maktab o‘quvchilarini atroflicha korreksion rivojlantirish va hayotga, mehnatga tayyorlashning asosidir. Bu ixtisoslashtirilgan maktablar vazifalari alohida yordamga muhtoj o‘quvchilarni mehnat malaka va ko‘nikmalar bilan qurollantirish, mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash, ularda jamoada mehnat qilishga qiziqish xislarini tarkib toptirish va va hulq meyorlarini meyorlarini shakllantirishdan iboratdir. Ixtisoslashtirilgan maktablarda mehnat tarbiyasi turli faoliyatlarda:

- o‘quv mashg‘ulotlarda;
- maishiy va ijtimoiy foydali mehnatda;
- texnologiya darslari(mehnat ta’limi) sirasida amalga oshiriladi.

Bu mehnat turining barchasi bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, har biri o‘ziga hos xususiyatlarga ega. O‘quv mehnatda o‘quvchilar mehnatga kerak bo‘ladigan bilimlarni egallasalar, maishiy mehnatda esa oddiy, sodda, o‘zlarining imkoniyatlariga mos keladigan mehnat turlari bilan tanishadilar.

Ixtisoslashtirilgan maktab o‘quvchilarini kasb-xunarga tayyorlashda ijtimoiy foydali mehnat katta ahamiyatga ega. Ularga o‘z-o‘ziga xizmat qilish, turli kechalar tashkil etish va o‘tkazish, ko‘rgazmalar, ko‘rgazmalar tashkil etish, maktabni obodonlashtirish ishlari, hosilni yig‘ishtirib olish, to‘garak ishlari va boshqa qator mehnat turlari kiradi. Bu mehnat turlari mazmunining turli-tumanligi alohida yordamga muhtoj mehnatga doir keng xajmda bilimlar egallashlariga imkoniyat yaratadi. Ixtisoslashtirilgan maktablardagi mehnat tarbiyasi, ishlab chiqarish mehnatlarida samarali natijalar beradi.

Mehnat tarbiyasining qimmatli ahamiyati shundaki, mehnat orqali alohida yordamga muhtoj o‘quvchilar turli fanlarga oid nazariy bilimlar olish bilan birga, ularda shaxsiy sifatlar intizomlilik, ma’suliyatlilik, sabr-qanoatlilik, mehnatsevarlilik, sabr –qanoatlilik, chaqqonlik kabi sifatlar shakllanib borishi asosida, mehnat davolash vazifasini ham o‘taydi. Barcha hatti-harakatlar oqibatida fiziologik jarayonlar yaxshilanib boradi. Ularning ruhiyatiga ijobiy korreksion ta’sir etadi. O‘quvchilarning irodaviy sifatlarini ham shakllantiradi. Ular faoliyatiga tashkiliy ma’no beradi, asosiysi, mehnat tufayli aqli zaif bolalar o‘z kasalliklariga oid fikrlardan chalg‘iydilar. Aqliy faoliyatlari mumkin qadar korreksion rivojlanib boradi. Lekin bunda mehnat topshiriqlari bolalar kasalligi darajasiga, imkoniyatiga, kuchig, yoshiga, mos bo‘lishi, individual xususiyatlarini inobatga olgan holda tanlanishi kerak, shundagina ularda o‘z kuchlariga ishonch va mehnatga muxabbat uyg‘onadi.



samarali natijalarga olib keladi. Pirovard natijada ixtisoslashtirilgan maktablarni, ma’lum kasb-hunarga tayyorlashda zamin bo’lib hizmat qiladi.

Tajribalar hamda ko’p yillik izlanishlarning ko’rsatishicha aqli zaif o’quvchilar mehnat faoliyatining turli jabhalarda muvaffaqiyatli ishtirok etishlari mumkin. Intellektual kamchiligi bo’lgan o’quvchilarni mehnat ta’limisiz rivojlanishini tasavvur etish mumkin emas. Ixtisoslashtirilgan maktabda mehnat tarbiyasini amalga oshirishda quyidagi metodlardan foydalanish yaxshi samara beradi:

-rag’batlantirish metodi;

-namuna metodi;

- ko’rsatmalilik metodidan foydalanish samarali natijalar beradi.

O’quvchilar bilan “Barcha kasblar qadrlı”, “Barcha mehnat faxrlidir”, kabi suhbatlar o’tkazish ularda kasb-hunarga qiziqish uyg’otadi.

Maktab yer uchastkasida ishlash, sinfda navbatchilik qilish, oshxonada mehnat qilish kattalar mehnatiga hurmat qilishga o’rgatadi. Ana shunday topshiriqlarni bajarish asosida aqli zaif o’quvchilarda faoliyatiga qiziqqa boshlaydilar. Bunday mehnat natijasida ularda odat, ehtiyojlar shakllanadi, kasb-hunarga o’rganishga qiziqish va maqsad sari intilish rivojlanib boradi. Alohida yordamga muxtoj bolalarni ishlatib tarbiyalash muhim maxsus pedagogik masala sanaladi. Aqli zaif bolalarni mehnatda tarbiyalash, kasb-hunarga o’rgatish jarayoni to’laqonli bo’lishi uchun qator talablarga va shartlarga amal qilish kerak. Bularga quyidagilar kiradi:

1. Alohida yordamga muhtoj bolalar mehnatga qancha erta jalb etilsa, uning mehnat tarbiyasi shunchalik muvaffaqiyatli o’tadi, kasbga qiziqishi yoshligidan tarkib topa boradi.

2. Alohida yordamga muhtoj bolalarning mehnati ijtimoiy ahamiyatga ega bo’lishi kerak.

3. Charchoq, horish hissini tug’diradigan mehnatgina ularda quvonch, o’z mehnatidan zavqlanish hissini uyg’otadi, quvonch bag’ishlaydi. Na jismoniy, na aqliy kuch talab etmaydigan, yengil mehnat samara bermaydi.

Bolalar mehnati dam olish bilan almashtirib borilishi kerak. Mehnat turlarini navbat bilan bajarilishi ham ulardagi charchoqni bosadi.

Har qanday mehnat topshirig’i foydali, imkon boricha natijali bo’lishi kerak. Bu natija jamoat uchun va o’zi uchun qanchalik ahamiyatli ega bo’lsa, aqli zaif bolalar uchun korreksion ta’siri shunchalik kuchli bo’ladi. Mumtoz pedagoglar xo’jako’rsinga qilinadigan yoki bolalarning vaqtini oladigan besamar ishga qat’iy e’tiroz bildirgan edilar.



4. Unumli mehnatda bolalarning shaxsiy, moddiy manfaatdorligini rad etish kerak emas.

Tajribalarning ko'rsatishicha, faqat shaxsiy manfaatdorlik orqaligina bola to'la kuch bilan ishlashi, o'rganishi, jamoaga singib ketishi va shu tarzda to'la qimmatli mehnatkash darajachsiga ko'tarilib, shu asosda burch va sharafga binoan ishlash imkoniyatini beradigan holatlarni shakllanishi mumkin.

Ixtisolashtirilgan maktabda mehnat o'quvchilarnin yosh va individual, psixofizik xususiyatlariga monand bo'lishi kerak. Boshlang'ich sinf o'quvchilari va ayniqsa birinchi sinf o'quvchilari faoliyatining asosiy turi o'yin bilan bog'liqdir. Boshlang'ich sinflarda o'yinlarda albatta mehnat elementlari bo'ladi. O'yin va ish bolaga quvonch bag'ishlaydi. Ishda bo'lganidek o'yinda ham mas'uliyat bo'lishi kerak.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, aqli zaif o'quvchilar vaqtini shunday tashkil etish kerakki, ular miyasi fikrlashsiz, qo'li ishsiz qolmasin, aks holda qator noxush holatlar, ko'ngilsiz voqealar xuddi shu bekorchi vaqtda yuz beradi.

Bu borada mutaffakirlardan Az -Zamaxshariy shunday deydi-“Mehnat odamni uch balodan asraydi: qashshoqlikdan, o'g'rilikdan, bezorilikdan”. Albatta bolani qo'lida hunari bo'lsa, och qolsa hunarini ishga soladi va mehnati bilan o'z ehtiyojini qondiradi, qashshoq bo'lib qolmaydi. o'g'rilikka qo'l urmaydi, mehnat bilan band bo'lgach, bekor yurib bezori bo'lmaydi. Bu aytilgan pur hikmat so'zlarda olam-olam ma'no bo'lib, aynan ixtisoslashtirilgan maktabda mehnat ta'limini takomillashtirish kerakligidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Айтметова С.Ш. Ёрдамчи мактаб ўқувчиларининг психик ривожланиш хусусиятлари.
2. Дульнев Г.М. Трудовое обучение во вспомогательной школе.- М.: “Учитель”-1985.
3. Pulatova P.M. Maxsus pedagogika (Oligofrenopedagogika).- T.: - “G'.G'ulom”.-2005 y.
4. Pulatova P.M.-Oligofrenopedagogika.- T.: Nizomiy nomidagi TDPU, Nashriyoti.-2021-y.
5. Pulatova P.M. Intellektual kamchiligi bo'ogan o'quvchilarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish- T.: TDPU.-2023 y.



6. N. Q. Abidova Autizm spektrli bolalarni o`qitish va tarbiyalash/o`quv qo`llanma. Toshkent – 2023 y.

7. Qutbiddinov A. N. THE TECHNOLOGY OF FORMING GEOMETRIC CONCEPTS IN PRIMARY CLASS STUDENTS WITH INTELLECTUAL DEFECTS BASED ON THE INNOVATION IDEA //INTEGRATION CLUSTER" ON THE BASIS OF INTERDISCIPLINARY RELATIONSHIPS." International Scientific and Current Research Conferences. – 2022.

8. Qutbiddinov A. N. THE TECHNOLOGY OF FORMING GEOMETRIC CONCEPTS IN PRIMARY CLASS STUDENTS WITH INTELLECTUAL DEFECTS BASED ON THE INNOVATION IDEA" INTEGRATION CLUSTER" ON THE BASIS OF INTERDISCIPLINARY RELATIONSHIPS //International Scientific and Current Research Conferences. – 2022. – C. 241-247.

9. Abidova, N. K. (2023). Psychological and pedagogical study of children with autism. *Oriental Journal of Education*, 3(03), 61-65.

10. Qutbiddinov, A. N. (2022). Technology of forming geometric concepts in primary class students with intellect defects on the basis of "integration Cluster". *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 6461-6466.

11. Nazokat, A. (2023). Autizm spektori buzilgan o`quvchilarning bilish faoliyatining o`ziga xos xususiyatlari. *Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences*, 412-415.

12. Abidova, Nazokat. "Positive effects of formation of knowledge, skills and skills on the basis of interdisciplinary relations." *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.3 (2021): 2505-2510.

13. Qutbiddinovna A. N. AUTIZM SPEKTORLI BOLALARDA IJTIMOYIY-MAISHIY MALAKALARNI RIVOJLANTIRISH: doi.org/10.5281/zenodo.10555394 //ILM-FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI. – 2024. – T. 1.No. 1.

14. Obidova, B., & Abidova, N. Q. (2023). RUHIY RIVOJLANISHI SUSTLASHGAN BOLALAR LUGAT BOYLIGINI RIVOJLANTIRISH. *QO`QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 417-419.

15. Abdupattayeva, D., and N. Q. Abidova. "IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNI INKLUZIV TA'LIMGA KIRITISH UCHUN ULARNING OTA-ONALARINI TAYYORLASH YO`LLARI." *QO`QON UNIVERSITETI XABARNOMASI* (2023): 758-760.

16. No`monjonova, R., & Abidova, N. Q. (2023). IMKONIYATI CHEKLANGAN YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH. *QO`QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 448-450.



17. Sharobidinova F., Abidova N. Q. AUTIZMGA EGA BOLALARNI PSIXOLOGO-PEDAGOGIK O‘RGANISH //QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI. – 2023. – C. 761-763.

18. Ubaydullayeva M., Abidova N. Q. O‘ZBEKISTONDA AQLI ZAIF BOLALARNI ERTA TASHXIS QILISH MUAMMOLARI //QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI. – 2023. – C. 764-766.

